lik o‘lchov birligi. Tarjimada qo‘llanilgan मिल so‘zi ingliz tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, 1,6 km.ga teng masofa o‘lchovidir. मिल “chaqirim” so‘zini izohlay olsada, asar tarixiy bo‘lganligi uchun ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlar o‘rniga hindiy tilida mavjud so‘zlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Hindiy tilida कोस [1;714-b.] uzunlik o‘lchov birligi mavjud bo‘lib, 3200 m.ga tengdir va u qisman bo‘lsa-da, “chaqirim” so‘zini izohlay oladi.

“Muayyan bir xalq hayotidagi o‘lchov birliklarini boshqasi bilan almashtirishda uni asarning umumiy ohangiga, undagi tarixiy haqiqatga, milliy ruhga nechog‘lik mos kelish-kelmasligini jiddiy o‘ylab ko‘rish kerak. Beparvolik bilan o‘sha o‘lchov birligi haqida zarur ma’lumotga ega bo‘lmay turib, uni o‘z tilidagi mos kelmaydign o‘lchov birligi orqali ifodalash asarning badiiy-estetik qiymatiga putur yetkazadi, kitobxonda voqelikka nisbatan ikkilanish, ishonchsizlik uyg‘otadi” [5;90-b.].

Xulosa. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, “Ulug‘bek xazinasi” “Yulduzli tunlar” romanlarining hindcha tarjimasida tarjimon, asosan, arab va fors, shuningdek, ingliz tillaridan hindiy tiliga o‘zlashgan so‘zlardan foydalangan.“Vazir”– वजीर, “qozi” –क़ाज़ी, “sipoh”-सिपाही, choshnagir–चाशनीगीर kabi so‘zlar shular jumlasidandir.

Tarjimon romandagi voqealar rivojini tasvirlashda, o‘tmish nafasi ufurib turgan arxaik so‘zlardan mahorat bilan foydalangan. Kerakli o‘rinlarda tarixiy-leksik birliklar izohlab berilgan. Ammo bu prinsip butun tarjima davomida izchil saqlanmagan. Tarjimon ba’zi so‘zlarni tarjima qilishda sinonim so‘zlardan foydalanib tarjima qilgan. Ularning barchasi tarixiy-arxaik leksika hisoblanmasa-da, tilning lug‘at boyligidan foydalanishga harakat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Индо-русский словарь. В двух томах, 1-том. А.С.Бархударов, В.М.Бескровный и др. Под ред. В.М. Бескровного. М., “Советская энциклопедия”, 1972, с. 912.

(2). Hindi-russkiy slovar. V dvux tomax, 2-tom. A.S.Barxudarov, V.M.Beskrovniy i dr. Pod red. V.M Beskrovniy. M., “Sovetskaya ensiklopediya”, 1972, c. 907.

(3). Isoqova Sh. Badiiy tarjima milliylik va tarixiylikning aks ettirilishi (Oybekning “Navoiy” romanining fransuzcha tarjimasi misolida). Filol. fan. nomz. …diss., T., 2004, 130-bet.

(4). Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent, “Fan”, 2005, 352-bet.

(5). Ochilov E. Arxaizm va tarjima. Sharq tarjimashunosligi. Tarixi, hozirgi kuni va kelajagi. Ilmiy maqolalar to‘plami, Toshkent, ToshDSHI, 2014, 39–45-betlar.

(6). Qodirov P. Yulduzli tunlar. Toshkent, “Sharq”, 2009, 543-bet.

(7). Ульциферов О.Г. Современный русско-хинди словарь. М., “Русский язык Медиа”, 2004, 1035 с.

(8). Yoqubov O. Ulug‘bek xazinasi. Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1994, 334-bet.

(9). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik, 1-jild, Toshkent, 2006, 808-bet.

(10). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-jild, S.F.Akobirov, T.A.Aliqulov, Z.M.Ma’rufov ва bosh., M.Ma’rufov tahriri ostida, M., “Rus tili”, 1981, 632-bet.

(11). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild, S.F.Akobirov, T.A.Aliqulov, Z.M.Ma’rufov ва bosh., M.Ma’rufov tahriri ostida, M., “Rus tili”, 1981, 603-bet.

(12) .याकुबोव अ .उलूगबेक की धरोहर) आनूवदक सुधीर कुमारमाथुर ,(रादुगाप्रकाशन ,ताशक़न्द १९८३ – ३६६ प.

(13). कादीरोव प .बाबूर) ,आनूवदक सुधीर कुमारमाथुर ,(रादुगाप्रकाशन ,मास्को १९८८– ५५६ प.

Jumanyazova Muxabbat Xusinovna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi UrDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi; khiva1970@mail.ru; ORCID: 0000-0002-2471-5823)

XORAZM XALQ DOSTONLARI TILIDA ASOSIY KONSEPTLAR VA QADRIYATLARNING IFODALANISHI

Annotatsiya. *Maqolada Xorazm dostonlari tili shunchaki o‘tmish yodgorligi emas, balki xalqning ko‘p asrlik tafakkur tarzi, dunyoqarashi va qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan tirik xazina ekanligi, shu bois uni o‘rganish orqali hozirgi davr uchun ham dolzarb bo‘lgan ko‘plab madaniy-ma’rifiy masalalarga javob topish mumkinligi haqida fikrlar yuritiladi. Unda Xorazm xalq dostonlaridan “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonidagi lisoniy vositalar (so‘zlar, iboralar, she’riy parchalar, nutqiy vaziyatlar) orqaliuning asosiy konseptlari va qadriyatlari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Xorazm dostonlari, folklor tili, milliy mentalitet, konsept, qadriyat, asosiy konstantalar, lingvistik xususiyatlar mental olam.*

ВЫРАЖЕНИЕ ОСНОВНЫХ ПОНЯТИЙ И ЦЕННОСТЕЙ В ЯЗЫКЕ ХОРЕЗМСКИХ НАРОДНЫХ ПОСЛАНИЙ

Аннотация. *В статье утверждается, что язык хорезмийских эпосов – это не просто пережиток прошлого, а живое сокровище, олицетворяющее многовековой образ мышления, мировоззрение и ценности народа, и поэтому, изучая его, можно найти ответы на многие культурно-просветительские вопросы, актуальные и по сей день. В ней анализируются основные концепты и ценности хорезмийского народного эпоса «Рождение Гёроглу» посредством языковых средств (слов, словосочетаний, поэтических фрагментов, речевых ситуаций).*

Ключевые слова: *хорезмийские эпосы, фольклорный язык, национальный менталитет, концепт, ценность, основные константы, языковые особенности, ментальный мир.*

EXPRESSION OF BASIC CONCEPTS AND VALUES IN THE LANGUAGE OF KHORAZM FOLK EPISTLES

Annotation. *The article discusses the idea that the language of Khorazm epics is not just a relic of the past, but a living treasure that embodies the centuries-old way of thinking, worldview and values of the people, and therefore, by studying it, it is possible to find answers to many cultural and educational issues that are relevant for the present. It analyzes the main concepts and values of the Khorazm folk epic "The Birth of Goroglu" through linguistic means (words, phrases, poetic fragments, speech situations).*

Key words: *Khorazm epics, folklore language, national mentality, concept, value, main constants, linguistic features, mental world.*

Kirish. Bugungi kunda o‘zbek xalqi ham o‘z taraqqiyotining yangi, mas’uliyatli bosqichini boshdan kechirmoqda. Yangi O‘zbekistonning ma’naviy yuksalishi asrlar davomida shakllangan va sayqal topgan milliy, madaniy-axloqiy qadriyatlarni asrab-avaylash, boyitish va kelgusi avlodlarga yetkazishni, xalqimizning bag‘rikenglik, mehmondo‘stlik, mehnatsevarlik, oilaparvarlik kabi ezgu fazilatlarini mustahkamlashni hamda jamiyat rivojiga to‘siq bo‘ladigan eskirgan qarashlar va mavjud illatlardan xoli bo‘lishni taqozo etadi. Bu jarayonda tilshunoslik fani milliy mentalitetning tildagi ifodasini chuqur tadqiq etish orqali muhim vazifani bajarishi mumkin.

Inson fenomenini, uning murakkab tabiatini, ayniqsa, til vositasida anglashga urinish XXI asr fani oldida turgan eng muhim vazifalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Bu bejiz emas. Zero, til inson tafakkuri, madaniyati va ruhiyatining ko‘zgusidir. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy tilshunoslikda antropotsentrik paradigmaga, ya’ni, tilni uning egasi va yaratuvchisi bo‘lgan inson bilan uzviy, ajralmas aloqadorlikda o‘rganishga bo‘lgan intilish tobora kuchaymoqda. Bu yondashuv tilni faqat belgilar tizimi sifatida emas, balki inson faoliyatining mahsuli va vositasi sifatida tadqiq etishni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili. Milliy an’ana, folklor, din, mafkura, hayotiy tajriba, san’at timsollari, his-tuyg‘ular va qadriyatlar tizimi kabi bir qator omillarning o‘zaro natijasi sanaluvchi amaliy (kundalik) falsafiy tushuncha bo‘lgan konsept xorijiy va o‘zbek olimlari tomonidan keng o‘rganilgan. Xususan, V.I.Karasik, G.G.Slishkin, Y.S.Stepanov va bosqalarning bu boradagi tadqiqotlari diqqatga sazovordir [1;2;3].

O‘zbek tilshunosligida “konsert” atamasi 1990-yillardan boshlab qo‘llanila boshlagan. Sh,Safarov, N.Mahmudov, T.Mardiyev, E.Mamatov, M.Rahmatova, O‘.Yusupov, G.Hoshimov kabi o‘zbek olimlarining bu boradagi tadqiqotlarini ta’kidlash joiz [4;5;6].

Tadqiqot metodologiyasi. I.P.Chernousova ta’kidlaganidek, “An’anaviy formulalar orqali ifodalangan folklor konseptlari an’anada va folklor tilida mavjud bo‘lgan o‘zaro bog‘liq hamda o‘zaro ta’sirdagi elementlar tizimini tashkil etadi. Folklor konseptosferasining tizimli xususiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi: folklor – til manzarasida murakkab integrallash (birlash)gan ma’noni (oila qurish va Vatanni himoya qilish kabi) gavdalantiruvchi hamda dialogik modellar orqali reprezentatsiyalangan (ifodalangan) ijtimoiy-madaniy kompleks konseptlar, o‘z navbatida, formul dialoglar vositasida ifodalangan o‘zaro bog‘liq konseptlardan tashkil topadi; bu formul dialoglar esa subkonseptlar va konseptlarni verballashtiruvchi (tilda ifodalovchi) leksik hamda leksik-grammatik formulalarni o‘z ichiga oladi” [7].

Til va madaniyat aloqadorligini o‘rganuvchi barcha fanlar, jumladan, yuqorida tilga olingan yo‘nalishlar uchun ham semantik tayanch nuqta sifatida qadriyat kategoriyasi xizmat qiladi. Bu esa aksiologik tilshunoslik yoki lingvoaksiologiyaning asosini tashkil etadi [8]. Lingvoaksiologiya tilda predmetlashgan (moddiylashgan) xalq dunyoqarashini (masalan, o‘zbekona dunyoqarashning oilaparvarlik, mehmondo‘stlik, kattaga hurmat, mahallaga sadoqat kabi jihatlarini), etnosning qadriyatlar tizimini hamda ularning tilda (leksika, frazeologiya, paremiologiyada) va ma’naviy madaniyatda (urf-odatlar, marosimlar, san’atda) rep-

rezentatsiyalanish (ifodalanish) usullarini o‘rganadi [9]. Bunday tadqiqotlar milliy o‘zlikni anglash, madaniyatlararo muloqotni yaxshilash va til orqali milliy qadriyatlarni targ‘ib qilishda muhim ahamiyatga ega.

Shu nuqtayi nazardan, o‘zbek mentalitetini chuqurroq anglash hamda milliy madaniyatning asosiy konstantalarini (o‘zgarmas jihatlarini) aniqlash uchun o‘zbek folklori – dostonlar, ertaklar, maqol va matallar, afsonalar, qo‘shiqlar, allalar, aytishuvlar kabi asrlar davomida sayqallanib kelgan og‘zaki ijod namunalari bebaho manba bo‘lib xizmat qiladi. Zero, bunday matnlar, A.T.Xrolenko ta’kidlaganidek, ko‘pincha, “jamoaviy-anonim, minimal darajada subyektiv, an’anaviy barqaror, “xalq iqrori” hisoblanadigan va yuksak madaniyat namunalarini ifodalaydigan” [10] xususiyatlarga ega bo‘lib, ularda xalqning ruhiyati, orzu-umidlari, axloqiy qarashlari eng sof va to‘liq mujassamlashgan bo‘ladi.

Tahlil va natijalar. Mental lingvistika til, tafakkur va madaniyat o‘rtasidagi uzviy aloqadorlikni, inson ongida dunyoning til orqali qanday aks etishini, lisoniy birliklar zamirida yashiringan mental (aqliy, ruhiy) jarayonlarni o‘rganadi. Folklor matnlari, xususan, dostonlar etnosning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, mentaliteti, ya’ni, o‘ziga xos fikrlash tarzi va ruhiy olamini o‘rganish uchun bebaho manba hisoblanadi. Quyida Xorazm xalq dostonlaridan “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni [11]ning boshlang‘ich qismi aynan shu nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Tahlilning asosiy maqsadi matndagi lisoniy vositalar (so‘zlar, iboralar, she’riy parchalar, nutqiy vaziyatlar) orqali doston yaratilgan davrdagi jamiyatning mental olamiga xos xususiyatlarni, dunyoning til manzarasini, asosiy konseptlar va qadriyatlarni ochib berishdir.

“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonining asosiy konseptlar va qadriyatlarning tildagi ifodasi quyidagichadir:

1. Taqdir, ilohiy iroda va inson (konsept: *xudo, taqdir, qismat*). Doston matnida voqealar rivoji, ko‘pincha, taqdir yoki Yaratganning irodasi bilan bog‘lanadi. Jig‘olibekning keksayishi (“ko‘zidan nur, belidan quvvat ketib”), Odibek va kelinining bevaqt o‘limi (“bu dunyoda davron surish Odibekka nasib etmadi”), Go‘ro‘g‘lining mo‘jizaviy tug‘ilishi (“xudo inoyat qilib shu farzandni ikki toshning orasida bergan bo‘lsa”) kabi holatlar inson hayoti oldindan belgilangan kuchlar ta’sirida ekani haqidagi dunyoqarashni aks ettiradi.

Tildagi ifodasi: “Haqning farmoni farmondur”, “Xudoga nola qilib”, “Panohimsan qodir xudo”, “Karam qil, yetkaz farzanda”, “Xudodan sharofat bo‘ldi”, “Xudo o‘zi lutfu ehson ayladi”, “manglayga yozilg‘an yozg‘itdan qutilib bo‘lmas ekan”. Bu kabi iboralar va murojaatlar insonning Olloh oldidagi ojizligi, unga sig‘inishi, umid bog‘lashi kabi mental holatlarni ko‘rsatadi. “Taqdir”, “nasib etmadi”, “yozg‘it” so‘zlari fatalistik dunyoqarash elementlarini ochib beradi.

2. Farzand qadriyati (konsept: *farzand, zuryod, nasl*). Matnda farzand, ayniqsa, o‘g‘il farzand, qadriyati o‘ta yuqori ekani yaqqol namoyon bo‘ladi. Odibekning ortidan zuryod qolmagani Jig‘olibek uchun eng katta qayg‘u (“O‘g‘lim, deb aylarman faryod, Izida qolmadi zuryod”). Go‘ro‘g‘lining topilishi esa eng katta quvonch, hayotning davomiyligi, kuch-quvvat va umid ramzi (“ko‘ziga nur, beliga darmon”, “kular yuzimni naylading”, “kular ko‘zimni naylading”, “mening g‘amli ko‘nglim shodmon ayladi”, “bag‘rimga yetishdi ko‘zim qarosi”).

Tildagi ifodasi: “Do‘g‘ma” (qul avlodi bo‘lgan qul), “zuryod”, “farzand”, “oxtiq” (nevara) so‘zlarining qo‘llanishi; “belga darmondur”, “ko‘ziga nur”, “ko‘zim qarosi” kabi metaforik iboralar farzandning hayotiy zarurat, quvonch manbai, najot ekani haqidagi mental tasavvurni ifodalaydi. Jig‘olibekning she’rlaridagi faryod va shukronalik hissi bu qadriyatning chuqurligini ko‘rsatadi.

3. Qahramonlik arxetipi va shaxsning shakllanishi (konsept: *qahramon, botir, shaxsiyat*): Go‘ro‘g‘lining obrazi klassik qahramonlik arxetipiga mos keladi. Jumladan, mo‘jizaviy tug‘ilish: Go‘rda tug‘ilishi uning oddiy inson emasligini, ilohiy yoki g‘ayritabiiy kuchlar bilan aloqadorligini ko‘rsatadi. Bu uning kelajakdagi buyuk ishlariga ishora.

Tabiat bilan bog‘liqlik. Echkini emishi uning tabiiy kuchlarga egaligini, yovvoyi tabiatini bildiradi.

Tug‘ma kuch va sho‘xlik: “Yerga ursa osmonga sakraydigan, otarmon-choparmon, shaddod bir bola” ta’rifi uning jismoniy kuchi va bo‘ysunmas xarakterini ko‘rsatadi. Bu qahramon uchun xos bo‘lgan faollik va kurashchanlik belgisi.

4. Ijtimoiy tuzilma va hokimiyat munosabatlari (konsept: *hokimiyat, bek, podshoh, xizmat*). Dostonda tasvirlangan jamiyat qat’iy iyerarxiyaga asoslangan (*podshoh, vazir, bek, xalq*). Jig‘olibekning Chamlibeldagi mavqeyi, keyin Xunxorshohga qaram bo‘lishi, saroydagi intrigalar, podshohning mutlaq va ba’zan shafqatsiz hokimiyati (“ko‘zini o‘ydirding, o‘g‘limni o‘ldirding”) o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy munosabatlari haqidagi mental tasavvurlarni aks ettiradi. Bular tilda “bek”, “podshoh”, “vazir”, “katxudo”, “oqsoqol”, “fuqaro sifat kishi”, “jallod” kabi ijtimoiy mavqeyini bildiruvchi so‘zlar; “eliga, yurtiga egalik qilmoq”, “otasi o‘rniga o‘tirmoq”, “xizmatingga keldim”, “bo‘yningni egib, menga xizmat qilmoq”, “masla-

hatchim bo‘lasan”, “dohil bo‘lmasin” kabi hokimiyat va bo‘ysunish munosabatlarini ifodalovchi birikmalar; “Egilgan boshni qilich chopmas” maqoli vaziyatdan kelib chiqib itoat qilish strategiyasining mental modelini ko‘rsatadi. Xunxorshohning g‘azabi (“ko‘ziga qon quyilib, qoni suyulib, tuklari to‘nini teshib”) kabi giperbolalar hokimning cheksiz va qo‘rqinchli qudrati haqidagi tasavvurni yaratadi.

5. Mentalitet va xarakter xususiyatlari. Emotsional ifoda: qayg‘u (Jig‘olibekning she’rlari, yig‘isi), quvonch (Go‘ro‘g‘li topilgandagi sevinch), g‘azab (Xunxorshoh), hayrat (Ganjimbekning xabariga Jig‘olibekning munosabati) kabi hissiyotlar ochiq va kuchli ifodalanadi. Bu o‘sha davr odamlarining hissiyotlarni yashirmasligi, emotsional ochiqligidan dalolat beradi.

Amaliy yondashuv va topqirlik. Go‘ro‘g‘lini tutish uchun oshiq va qo‘g‘irchoq qo‘yish (jinsini aniqlash), yopishqoq egar yasash kabi usullar xalqning amaliy tafakkuri, muammoni hal qilishdagi topqirligini ko‘rsatadi.

Dunyoqarash elementlari. Tushga e’tibor (“kecha bir tush ko‘rgan edim”), g‘ayritabiiy mavjudotlarga ishonish (“suv oti”), pirlarga sig‘inish (“Pirlardan karomat bo‘ldi”, Jig‘olibekning she’rida pirlarga murojaati) kabilar o‘sha davr odamlarining mifologik va diniy tasavvurlarini aks ettiradi.

Jamoaviylik. Muhim masalalar (bolaga ism qo‘yish, uni tutish) elning kattalari, oqsoqollar bilan maslahatlashib hal qilinadi. Bu jamoaviylikning, kattalar fikriga hurmatning yuqoriligini ko‘rsatadi.

6. Lingvistik xususiyatlar va mental olam. Obrazlilik va tasviriy vositalar: “suvdan chiqqan shog‘olday”, “dunikdan tushgan dunakday” kabi o‘xshatishlar, “ko‘ziga nur, beliga darmon”, “egilgan boshni qilich chopmas” kabi metaforik iboralar, “otarmon-choparmon”, “shaddod” kabi epitetlar xalqning dunyoni obrazli idrok etishi, baholash mezonlari haqidagi mental tasavvurlarni ochadi.

She’riy nutq. Doston tarkibidagi she’rlar qahramonlarning ichki kechinmalari, his-tuyg‘ulari, dunyoqarashi va qadriyatlarini eng yorqin ifodalovchi vositadir. Ularning tili, ohangi, mazmuni mental holatni bevosita aks ettiradi.

Xorazm shevasiga xos so‘zlar: matnda Xorazm shevasiga xos so‘zlarning (“do‘radi”, “taka”, “dim”, “oxtiq”, “do‘g‘onlar” va hokazo) qo‘llanilishi matnning autentikligini, ma’lum bir madaniy-lisoniy muhitga mansubligini tasdiqlaydi va o‘sha hudud aholisining lisoniy o‘ziga xosligini ko‘rsatadi.

Xulosa. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni tili orqali biz doston yaratilgan va yashagan muhit ahlining dunyoqarashi (taqdir va ilohiy irodaga ishonish), qadriyatlar tizimi (farzand, nasl davomiyligining yuksak qadri), qahramonlik haqidagi tasavvurlari (mo‘jizaviy tug‘ilish, tug‘ma kuch), ijtimoiy munosabatlar haqidagi qarashlari (ierarxiya, hokimiyatning tabiati) hamda mental xususiyatlari (emotsional ochiqlik, amaliy topqirlik, jamoaviylik) haqida muhim xulosalar chiqarishimiz mumkin. Tildagi obrazlilik, she’riy parchalar, hatto shevaga xos xususiyatlar ham o‘sha davr insonlarining mental olamini, dunyoni lisoniy idrok etish tarzini ochib berishga xizmat qiladi. Bu tahlil folklor matnlarining nafaqat badiiy yodgorlik, balki xalqning ruhiy-ma’naviy dunyosini aks ettiruvchi bebaho lisoniy manba ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Монография, М., “Гнозис”,2004, 390 с.

(2). Слышкин Г.Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецендентных текстов в сознании и дискурсе. Монография, М., “Academia”, 2000, 128 с.

(3). Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. М., “Академический проект”, 2001, 990 с.

(4). Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax, “Sangzor”, 2006.

(5). Rahmatova M.M. Ingliz, o‘zbek, tojik milliy madaniyatida “go‘zallik” konseptining lisoniy xususiyatlari. Filol.fanl.fals.dokt. (PhD) diss.avtoref., Buxoro, 2019.

(6). Yusupov O‘.Q. Ma’no, tushuncha, konsept va lingvokulturema atamalari xususida. Stilistika zamonaviy tilshunoslikning yo‘nalishlarida. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Toshkent, 2011, 48–51-betlar.

(7). Черноусова И.П. Язык фольклора как отражение этнической ментальности (на материале фольклорной концептосферы русской волшебной сказки и былины). Автореф. дисс. канд. филол. наук, 2015, с. 19.

(8). Маркелова Т.В. Аксиология русской языковой личности в пространстве современной лингвистики. Русское слово, высказывание, текст: рациональное, эмоциональное, экспрессивное. Межвуз. сб. научных трудов, посвященный 75-летию проф. П.А.Леканта, М., МГОУ, 2007, с. 30.

(9). Вендина Т.И. Этнолингвистика, аксиология и словообразование. Слово и культура. Памяти Н.Н. Толстого. Т. I, ред. коллегия: Т.А.Агапкина, А.Ф.Журавлев, С.М.Толстая. М., изд-во «Индрик», 1998, с. 40.

(10). Хроленко А.Т. Лингвокультуроведение. Пособие к спецкурсу по проблеме «Язык и культура». Курск, изд-во ГУИПП «Курск», 2000, с. 120–121.

(11). Гўрўғлининг туғилиши. Хоразм достонлари. Гўрўғли. Урганч, “Хоразм”, 2011, 3–9-бетлар.